



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

B U Y R U Q

2025-yil “ 4 ” aprel 25-U

Samarqand shahar

TDIU Samarqand filialida ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan olimpiya sport turlaridan “Dzyudo”, “Badminton” va “Stol tennisi” bo‘yicha sport klublarini tashkil qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 13-fevral kuni “Olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholining jismoniy faolligini oshirish”ga bag‘ishlangan videoselektorda berilgan 8-sonli topshiriqlari hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-martdagi 3/15-8-2025-49v3/1-sonli xatidagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida sportni ommalashtirish va rivojlantirish, sport klublari faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishga qaratilgan 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar bo‘yicha dasturi”da belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida.

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-martdagi 3/15-8-2025-49v3/1-sonli xatidagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida sportni ommalashtirish va rivojlantirish, sport klublari faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishga qaratilgan 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar bo‘yicha dasturi” rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Filialda mavjud moddiy texnik bazasi, murabbiylar tarkibi hamda talabalarning qiziqishi va xohish-istaklarini inobatga olib, ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan olimpiya sport turlaridan **“Dzyudo”, “Badminton” va “Stol tennisi”** sport klublari faoliyati yuridik shaxs maqomisiz tashkil etilsin va quyidagi tarkibda rahbarlari tasdiqlansin.

T/r	Sport kulubi nomi	F.I.O	Ish joyi va lavozimi
1.	“Dzyudo”	S.Rustamov	Filial treneri
2.	“Badminton”	Sh.Mizomov	Filiali sport klubi rais o‘rinbosari
3.	“Stol tennisi”	B.Muzrapov	Filial direktor maslahatchisi

3. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha direktorning birinchi o‘rinbosari X.T.Turdibekov, filial sport klubi raisi o‘rinbosari SH.S.Mizomov, fakultet dekanlari:

3.1. Filialning **“Dzyudo”, “Badminton” va “Stol tennisi”** sport turlari bo’yicha jamoalarini shakllantirish hamda ularning o‘tkaziladigan respublika musobaqalarida to‘liq ishtirok etishini ta’minlash;

3.2. Filialdagi mavjud sport inshootlari va maydonlarni, xonalarni doimiy faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

3.3. Yuqoridagi sport turlari bo’yicha sport klublari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish hamda sport mashg‘ulotlari jadvalini shakllantirish;

3.4. Filialdagi sport klubi moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va murabbiy-o‘qituvchilar bilan ta’minlash, bu borada Sport vazirligi, sport federatsiyalarining hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlik memorandumlar tuzish;

3.5. Sport turi bo’yicha belgilangan tartibda kerakli jihozlar bilan ta’minlash choralari ko‘rish, talaba-o‘quvchilarning xohish va istaklarini inobatga olgan holda sport klublariga jalb etish bo’yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

3.6. O‘quv mashq jarayonining sifati ustidan nazorat qilish, sport mashg‘ulotlarini muntazam o‘tkazilishi va talaba-o‘quvchilar qatnovi darajasi monitoringini tizimli asosda olib borishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Sport klubi raisi o‘rinbosari va fakultetlar dekanlari musobaqalarga fakultetlar jamoalarini maxsus sport kiyimlarida ishtirok etishini ta’minlash belgilab qo‘yilsin.

5. Filial matbuot kotibi P.Sh.Amriddinova:

5.1. Filialda o‘tkaziladigan barcha sport tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijro nazoratini o‘z zimnamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Milliy Olimpiya qo‘mitasi raisi Shavkat Mirziyoyev boshchiligida joriy yilning 2025-yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo’yicha bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishi.

Direktor



O.Murtazayev

Kiritildi:

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat
va ma'rifat bo'limi boshlig'i
T.Yuldashev

Kelishildi:

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
X.I.Turdibekov

Jismoniy va yuridik shaxslarning
murojatlari bilan ishlash, nazorat
va monitoring bo'limi boshlig'i
N.Tuxtamurodova

Ekspertizadan o'tkazdi:

Filial yuriskonsul'ti M.Xolmatov